



PRIMITIVE RELIGIOUS BELIEFS OF THE NOMADIC TRIBES OF THE SOUTHERN ARAL REGION: TOTEMISM, ANIMISM, AND COSMOLOGICAL CONCEPTS

Aydos Kiyasatdinovich Yakupov

Lecturer, Muhammad al-Biruni Secondary Specialized Islamic Educational Institution

E-mail: yakupovaydos508@gmail.com

Science ID: MQR-0726-0235

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: totemism, animism, shamanism, nomadic religion, Saka-Massagetae, Animal Style, Aral Sea region, cosmological beliefs, primitive religion, Central Asian religious studies.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: This article analyses the religious beliefs of the nomadic peoples of the Southern Aral Sea region – Saka–Massagetae, Sarmatians, Kangly, Huns, and early Turkic ethnic groups – who inhabited the area from the 7th century BCE to the 8th century CE, from a religious studies perspective. Totemism, animism, shamanism and cosmological world-views are examined through the Animal Style art, archaeological finds and ancient written sources. The study demonstrates that the religious outlook of these peoples developed in interaction with neighbouring civilisations and formed the spiritual foundation of subsequent Central Asian cultures.

JANUBIY OROL BO'YI KO'CHMANCHI QAVMLARIDA IBTIDOIY DINIY E'TIQODLAR: TOTEMIZM, ANIMIZM VA KOSMOLOGIK TASAVVURLAR

Aydos Kiyasatdinovich Yakupov

Muhammad al-Beruniy o'rta maxsus islom

ta'lim muassasasi o'qituvchisi

yakupovaydos508@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: FNM-0526-0113

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: totemizm, animizm, shamanizm, ko'chmanchi dini, sak–massagetlar, hayvonot stili, Orol bo'yi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Orol bo'yida mil. avv. VII asrdan milodning VIII asrigacha yashab o'tgan

kosmologik tasavvurlar, ibtidoiy e'tiqodlar, Markaziy Osiyo dinshunoslik.

ko'chmanchi qavmlar – sak–massagetlar, sarmatlar, qanglilar, xunmlar va qadimgi turk etnoslarining – diniy e'tiqodlari dinshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Totemiz, animizm, shamanizm va kosmologik tasavvurlar tizimi hayvonot stili san'ati, arxeologik topilmalar hamda antik yozma manbalar asosida o'rganiladi. Tadqiqot ko'rsatadiki, mazkur qavmlarning diniy dunyoqarashi qo'shni sivilizatsiyalar – Eron, Xorazm, Baqtriya bilan o'zaro aloqada shakllanib, keyingi davr Markaziy Osiyo xalqlarining ruhiy merosiga zamin bo'lgan.

ПЕРВОБЫТНЫЕ РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ КОЧЕВЫХ ПЛЕМЁН ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ: ТОТЕМИЗМ, АНИМИЗМ И КОСМОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ

Айдос Киясатдинович Якупов

Преподаватель Среднего специального исламского образовательного учреждения имени Мухаммада аль-Беруни

E-mail: yakupovaydos508@gmail.com

Научный идентификационный номер: MQR-0726-0235

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: тотемизм, анимизм, шаманизм, религия кочевников, сако–массагеты, звериный стиль, Приаралье, космологические представления, первобытные верования, религиоведение Центральной Азии.

Аннотация: В статье с точки зрения религиоведческой анализируются религиозные верования кочевых народов Южного Приаралья – сако-массагетов, сарматов, канглов, хуннов и древнетюркских этносов, – населявших регион с VII в. до н.э. по VIII в. н.э. На основе памятников звериного стиля, археологических материалов и античных письменных источников исследуются тотемизм, анимизм, шаманизм и космологические представления. Показано, что религиозное мировоззрение данных народов формировалось во взаимодействии с соседними цивилизациями и послужило духовной основой для последующих народов Центральной Азии.

Kirish. Markaziy Osiyo ko'chmanchi xalqlarining diniy e'tiqodlarini o'rganish dinshunoslik, tarix va etnologiya fanlarining kesishmasida turgan dolzarb masalalardan biridir. Janubiy Orol bo'yi mintaqasi – turli etnos va sivilizatsiyalar to'qnashgan geografik fazo sifatida –

mil. avv. VII asrdan boshlab diniy qarashlari, marosimlari va dunyoqarashlari jihatdan o'ziga xos bo'lgan ko'chmanchi jamoalarga uy bo'lgan. Ushbu qavmlarning e'tiqodlari nafaqat qadimiy tarix, balki zamonaviy dinshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi, zerokim ular keyingi asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan diniy tizimlar – islomgacha bo'lgan an'analar, zardushtiylik, buddizm – bilan muayyan aloqada bo'lgan.

E. Taylorning animizm nazariyasi[1], J. G. Frezerning totemizm konsepsiyasi[2] va M. Eliadeaning shamanizm tadqiqotlari[3] ko'chmanchi xalqlarning ibtidoiy diniy tizimlarini tushuntirishda asosiy nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda ana shu nazariy doira Janubiy Orol bo'yi arxeologik va yozma manbalariga tatbiq etiladi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, hozirga qadar Janubiy Orol bo'yi ko'chmanchi qavmlarining diniy tizimi yaxlit dinshunoslik tahlili ob'ekti sifatida atroflicha o'rganilmagan. Mavjud ishlar ko'proq arxeologik yoki tarixiy yondashuv bilan cheklanib, diniy fenomenologiya masalalariga kam e'tibor qaratilgan. Ushbu maqola ushbu kamchilikni qisman bartaraf etishga urinish hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Janubiy Orol bo'yi ko'chmanchi qavmlarining diniy e'tiqodlarini o'rganishda bir necha ilmiy yo'nalish mavjud. Birinchi yo'nalish – antik yozma manbalar tahlili. Gerodotning “Tarix” asari[4] va Strabonning “Geografiya” kitobida[5] sak-massagetlarning hayoti, urf-odatlar va diniy marosimlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Gerodot massagetlarning quyosh xudosiga ot qurbon qilishi haqida aniq yozib qoldirgan.

Ikkinchi yo'nalish – arxeologik tadqiqotlar. S. P. Tolstovning Xorazm ekspeditsiyasi materiallari[6] va A. Asqarovning Markaziy Osiyo arxeologiyasiga oid ishlarida[7] Tegisken, Uygaraq va Jetiasar yodgorliklaridagi diniy ramzlar, dafn marosimlari va qurbongoh buyumlari tahlil qilingan.

Uchinchi yo'nalish – diniy fenomenologiya va qiyosiy dinshunoslik. M. Eliadeaning ibtidoiy dinlar va shamanizm bo'yicha fundamental asarlari[3], shuningdek K. Meuli va K. Jettmaning skif-sak diniy an'analari tadqiqotlari[8] mazkur mintaqa ko'chmanchilarining e'tiqodlarini keng tarixiy-diniy kontekstda o'rganishga imkon beradi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan: tarixiy-qiyosiy, fenomenologik, manbashunos va arxeologik-tahliliy usullar. Asosiy manba sifatida antik davr yozma yodgorliklari, Orol mintaqasi arxeologik topilmalari va zamonaviy dinshunoslik tadqiqotlari qo'llanilgan.

Asosiy qism

1. Totemizm va animizm: ibtidoiy e'tiqodlarning ilk shakllari

Mil. avv. VII–V asrlarda Janubiy Orol bo'yida yashagan sak–massagetlarning diniy dunyoqarashida totemizm va animizm muhim o'rin egallagan. E. Taylorning ta'rifiga ko'ra,

animizm – barcha tabiat hodisalariga jon (ruh) atash e'tiqodi bo'lib[1], Orol bo'yi ko'chmanchilarida bu e'tiqod hayvonlar, daryolar, tog'lar va osmon jismlariga nisbatan aniq ifodalangan.

Gerodotning yozishicha, massagetlar xudolar orasida faqat quyoshni tan olishgan va unga ot qurbon qilishgan: “Ular faqat quyoshga sajda qiladi va unga ot atab so'yadi, chunki tezkor hayvon tezkor xudoga xos deb hisoblaydi”[4]. Bu ma'lumot animistik va solyanistik (quyoshga sig'inish) e'tiqodlarning birikuvini ko'rsatadi.

Totemizm jihatidan ko'chmanchilarning hayvonot stili san'ati alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'chqor, burgut, yo'lbars va kiyik tasvirlari nafaqat bezak, balki qavmning totemik ajdodi va himoyachisi sifatida talqin qilinadi. J. G. Frezerning totemizm tahlili[2] bu obrazlarning diniy-mifologik vazifasini tushunishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Shamanizm va o'rtachi (mediator) diniy amaldorlar

M. Eliade shamanizmnı “ekstatik texnika” sifatida ta'riflaydi – shaman uch olam (yer osti, o'rta dunyo, yuqori olam) o'rtasida vositachi bo'lib, ruhlar bilan muloqotga kirishadi[3]. Orol bo'yi ko'chmanchilarida bu funksiyani bajargan shaxslar arxeologik topilmalarda maxsus dafn qilingan holda uchraydi: ularga ko'zgu, amulet va ritualistik buyumlar birga ko'milgan.

Tegisken va Uygaraq qabristonlaridan topilgan buyumlar tarkibida qo'ng'iroqcha, hayvon suyaklari va mis ko'zgular alohida qatlamda joylashgan.[6] Dinshunoslik nuqtai nazaridan bu buyumlar shamonistik amaliyot qurollari (regalia) sifatida talqin qilinadi, chunki o'xshash buyumlar Sibir va Oltoy shamanlarining dafn komplekslarida ham uchraydi.

Eron Axomoniylar bitigi – Naqshi-Rustam yozuvida saklarning uch guruhga ajratilishi[9] ham ma'lum darajada ularning diniy tashkillanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xususan, Saka-xaumovarka (“xaoma tayyorlovchilar”) nomlanishi zardushtiy marosim ichimligiga ishora qiladi va shu qavmlarning Eron diniy ta'siriga qanchalik ochiq bo'lganini ko'rsatadi.

3. Kosmologik tasavvurlar tizimi

Ko'chmanchi qavmlarning kosmologiyasi uch qavatli olam modeliga asoslangan – bu model shamanistik dinshunoslikda universal hisoblanadi[3]. Orol bo'yi materiallarida bu model quyidagicha ifodalangan: yer osti olami (o'liklar va yovuz ruhlar maskani), o'rta dunyo (tirik odamlar yashaydi) va yuqori olam (xudolar va oliy ruhlar makoni). Ularni birlashtiruvchi “dunyo daraxti” yoki “oq qush” obrazi hayvonot stili san'atida burgut (yuqori olam ramzi), ilon (yer osti ramzi) va kiyik (o'rta dunyo ramzi) birikmasida ifodalanadi.

Mitra va Indra – hind-eron mifologiyasining yetakchi xudolari – Orol bo'yi saklari tasavvurida ham muayyan o'rin egallagan[10]. Mitra nurning va ahd-shartning xudosi sifatida

ko'chmanchi harbiy aristokratiya e'tiqodida ayniqsa muhim bo'lgan, chunki u urushda g'alaba va shartnomalarda sadoqatni kafolatlagan.

Saklarning ot kulti alohida o'rin egallaydi. Ot – quyosh xudosining ramzi va ruhlar olamiga o'tkazuvchi vosita sifatida tasavvur qilingan. Bu e'tiqod keyinchalik qoraqalpoq va qozoq xalqlarining og'zaki ijodida – Alpomish va Qo'blon eposlarida – tulpor obrazida saqlanib qolgan[11].

4. Xunlar va qadimgi turklar: diniy sintez jarayoni

Mil. avv. III–II asrlarda Janubiy Orol bo'yiga xunlar va tele qavmlarining kirib kelishi yangi diniy ta'sirlarni olib keldi. Bu davrda Jetiasar madaniyatida mahalliy sak-massaget an'analar bilan Markaziy Osiyo dashtlari ko'chmanchilarining e'tiqodlari sintezlashdi[7]. Aynan shu davrdan boshlab dafn marosimlarida at-abzal birga ko'milishi kuchaydi – bu xunlar ot kultining ta'sirini ko'rsatadi.

Milodiy VII-VIII asrlardagi qadimgi turk qavmlarining diniy tizimi – Tengri (osmon xudosi) kulti va «ko'k Tengri» mafkurasi – oldingi shamanistik an'analar zaminida shakllangan[12]. Turk runik yozuvlarida (O'rxun–Yenisey bitiklari) Tengri ibodat qilish va qurbon marosimlari aniq tasvirlangan. Bu mafkura Orol bo'yi mintaqasida ham tarqalib, mahalliy diniy an'analar bilan qo'shib ketgan.

Islomgacha bo'lgan bu diniy qatlam Markaziy Osiyo xalqlarining keyingi islomiy an'alariga ham sust ta'sir ko'rsatgan: islom qabul qilingandan keyin ham qo'shni xalqlarda ot qurbon qilish, ruhlar bilan muloqot va shamonistik davo amaliyotlari uzoq vaqt saqlanib qolgan[13].

Xulosa. Janubiy Orol bo'yi ko'chmanchi qavmlarining diniy e'tiqodlari uch ming yillik tarixiy davr mobaynida murakkab va ko'p qatlamli tizim sifatida shakllanib rivojlangan. Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi.

Birinchidan, ushbu qavmlar diniy hayotida totemizm, animizm va shamanizm bir-biri bilan uyg'un tarzda mavjud bo'lgan. Ular alohida-alohida emas, balki yaxlit diniy tizim sifatida ifodalanib, hayvonot stili san'ati, qurbon marosimlari va dafn komplekslarida moddiy aksini topgan.

Ikkinchidan, uch qavatli kosmologik model Janubiy Orol bo'yi ko'chmanchilarida shamanistik an'ananing yetukligini ko'rsatadi. Dunyo daraxti, osmon xudosi va hayvon-vositachi obrazlari dinshunoslikda universal hisoblanadigan arxetiplar bo'lib, sak-massaget materiallarida aniq tasdiqlangan.

Uchinchidan, Orol bo'yi ko'chmanchilarining diniy tizimi izolyatsiyada rivojlanmagan – u Eron zardushtiylik ta'siri, hind-eron mifologiyasi va xitoy-hunlarning kultlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan. Bu sintez mintaqaning diniy xilma-xilligini ta'minlagan.

To'rtinchidan, ushbu ibtidoiy diniy qatlam keyingi davr xalqlarining ruhiy merosiga zamin bo'lib, islomiy an'analar bilan birikib Markaziy Osiyo din tarixining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu jihatdan mazkur mavzu zamonaviy dinshunoslik uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Taylor E.B. Primitive Culture: Researches into the Development of Mythology, Philosophy, Religion, Language, Art and Custom. – London: John Murray, 1871. – 453 p.
2. Frazer J.G. Totemism and Exogamy: A Treatise on Certain Early Forms of Superstition and Society. – London: Macmillan, 1910. – Vol. I. – 567 p.
3. Eliade M. Shamanism: Archaic Techniques of Ecstasy. – Princeton: Princeton University Press, 1964. — 610 p.
4. Gerodot. Tarix (To'qqiz kitob). I.216; IV.59–75 / Tarj. G.A. Stratanovskiy. – Moskva: Nauka, 1972. – 600 b.
5. Strabon. Geografiya. XI kitob / Tarj. G.A. Stratanovskiy. – Leningrad: Nauka, 1964. – 943 b.
6. Tolstov S.P. Po sledam drevnexorezmiyskoy tsivilizatsii. – Moskva: AN SSSR, 1948. – 328 s.
7. Askarov A.A. Drevnezemledelcheskaya kultura epokhi bronzy yuga Uzbekistana. – Toshkent: Fan, 1977. – 231 b.
8. Jettmar K. Art of the Steppes: The Eurasian Animal Style. – New York: Crown Publishers, 1967. – 280 p.
9. Kent R.G. Old Persian: Grammar, Texts, Lexicon. – New Haven: American Oriental Society, 1953. – 217 p.
10. Boyce M. A History of Zoroastrianism. Vol. I: The Early Period. – Leiden: Brill, 1975. – 346 p.
11. Sarimsoqov B. O'zbek xalq dostonlarida mifologik obrazlar. – Toshkent: Fan, 1986. – 180 b.
12. Klyashtorniy S.G., Sultanov T.I. Gosudarstva i narody evraziyskix stepey: drevnost i srednevekov'e. – Sankt–Peterburg: Peterburgskoe vostokovedenie, 2004. – 368 s.

13. DeWeese D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde: Baba Tükles and Conversion to Islam in Historical and Epic Tradition. – Pennsylvania: Penn State University Press, 1994. – 638 p.